

TIL VA MADANIYAT

ISSN 2181-922X

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 1

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

O'ZBEKISTON

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 1

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinbosari: **Nozliya Normurodova**
Samixon Ashirboyev
Abdumurod Tilavov
Mas'ul kotib: Anvarbek Turdialiyev

Tahrir kengashi

Mominova Bag'dan (Ostona), Mingboyev Nurlon (Chimkent), Ercan Alkaya (Turkiya), Turdimov Shomirza (O'zRFA), Jo'raqoziyev Nodirjon (VM), Alniyazov Ayitmurat (Nukus), Xolmanova Zulxumor (ToshDO'TAU), Ibrohimov Yo'ldosh (Nukus), Saidqulov Ilhom (ToshDO'TAU), Murodova Nigora (Navoiy), Jabborov Xo'jamurod (Qarshi), Darvishev Ibrohim (Namangan), Aliqulova Hulkar (ToshDO'TAU), Xidraliyeva Zoxira (ToshDO'TAU), Norboyeva Shukurjon (Urganch), Rahmonov Navro'z (Navoiy), Ibragimova Zamira (Nukus), Hakimova Muhayyo (ToshDO'TAU), Umurzoqova Marhabo (ToshDO'TAU), Ubaydullayev Alisher (O'zMU), Alimardanov Elyor (ToshDO'TAU), Qodirov Umarjon (ToshDO'TAU), Sayfullayev Baurjon (O'zMPU).

“O'zbekiston: til va madaniyat jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-oktabrdagi № 308/6-sonli qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan. “O'zbekiston: til va madaniyat jurnalining “Folklorshunoslik. Shevashunoslik” seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi “O'zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, o'zbek folklorining dolzarb masalalari, o'zbek dostonchiligi, jahon folklori, folklor janrlari, turkiy xalqlar folklori, folklor va yozma adabiyot, adabiyotimizdagi folklor motivlari, o'zbek shevalarining fonetik, grammatik va leksik xususiyatlari, tarixiy dialektologiya, shevalarning sotsiolingvistik talqini, areal lingvistika, folklor dialektologiyasi, adabiy til va sheva munosabatlari, sheva ma'lumotlarini o'zbek tili korpusiga teglash, dialektologiyaning nazariy asoslari, jahon dialektologiyasidagi ilg'or g'oyalarga oid tadqiqot natijalari nashr qilinadi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.
O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-un.uz

MUNDARIJA

Shevashunoslik

Samixon Ashirboyev

O'zbek adabiy tili va labial singarmonizm
(XX asrning 20-yillari munozarasidan) 6

Marhabo Umurzaqova

Dialektizmlar lisoniy shaxs ijtimoiy belgilarini aks ettiruvchi vosita sifatida .. 15

Muyassar Xolova

O'zbek tili dialektal bazasini shakllantirish prognozi 22

Elyor Alimardanov

Xorazm dialektal zonasidagi o'zbek va turkman shevalari izoglossalar tizimi
(fonetik izoglassalar) 30

Akbarali Boymirzayev

Talabalarning grammatik bilimni baholashda testdan foydalanish 39

Озодахон Гулямова

Теоретические основы медиадискурса: структурные актеристики и
ТИПОЛОГИЯ 45

Qobilbek Xushboqov

Shafoat Rahmatullo Termiziyning antitezalardan foydalanish mahorati . 51

Nigora Raxmatova

Benefits and Limitations of Using Authentic Materials in Language
Instruction: Boosting Vocabulary and Language Skills 63

Folklorshunoslik

Aziza Saydullayeva

Özbek ve Türk Halk Masallarında Kadın Figürleri 73

Saodat Kodirova

Maqollar nashrida matniy farqlar (Gulxaniy asarlari misolida) 79

Guljahon Xo'jayeva

Qadimiy epik an'analar va tarixiy roman poetikasining uzviyligi 86

Shohida Mo'minova

Bolalar she'riyatidagi janrlar takomili 97

Sevinch G'afforova

Uch baxshining Hasani (Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'lkan, Zohir
shoir Qo'chqor o'g'li, Rahmatulla Yusuf o'g'li variantlari misolida) 103

Nargiza Mirzaaliyeva

Adabiyotshunoslikda badiiy obrazlarning qiyosiy tipologiyasi 111

Nargiza Umurzaqova

Tohir Malikning "Odamiylik mulki" asarida Navoiy hikmatlarining o'rni ..120

Uch baxshining Hasani
(Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'lkan, Zohir shoir
Qo'chqor o'g'li, Rahmatulla Yusuf o'g'li variantlari
misolida)

Sevinch G'afforova¹

Abstrakt

“Go‘ro‘g‘li” turkumini tashkil etuvchi dostonlarning kattagina qismini Go‘ro‘g‘lining asrandi farzandlari Avazxon va Hasanxon, ularning farzandlariga bag‘ishlangan epik asarlar tashkil etib, ushbu obrazlar bevosita va bilvosita sarguzasht qahramonlari sifatida kuylanadi. Va har biri o‘zining biografik-nasliy turkumliligini tashkil etadi. Vayangandan Chambilga tomon asrandi farzand sifatida olib kelingan Hasanxon haqidagi turkumlilikni kuylagan bir qator baxshilar repertuari mavjud bo‘lib, ushbu ilmiy tadqiqotda Muhammadqul Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan, Zohir shoir Qo‘chqor o‘g‘li, Rahmatulla Yusuf o‘g‘li ijrosidagi “Hasanxon” dostonlari va ularning qiyosiy tahlili olib boriladi. Bugunga qadar O.Sobirov, M.Mirzayeva, S.Sariyev, Sh.Turdimov tomonidan atroflicha tadqiqot olib borilgan Go‘ro‘g‘li turkum dostonlarida Hasanxon obrazi tahliliga to‘liq to‘xtalinmagan. Ushbu tadqiqot ishi orqali mavjud masala yuzasidan fikr bildirilib, uch baxshining “Hasanxon” dostoni qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: folklorshunoslik, dostonchilik, nasl, turkumlilik, qiyosiy tahlil, temirchi oilasi, mardlik, jasurlik, ota-bola munosabati.

Asosiy qism

Hasanxonning Vayangandan Chambilga olib kelinishi orqali boshlangan turkumlilik, uning dastlabki jasoratlari kuylangan “Hasanxon”, bahodirlik safari va oila qurishiga oid “Dalli”, shuningdek, uning farzandi haqidagi “Ravshan” dostonlari orqali yuzaga keladi. Epizodik obraz sifatida qatnashgan bir qator Go‘ro‘g‘li, Avazxon, parilar haqidagi dostonlarda ham uning qahramonlik, jasurlik hislatlari aks etgan bo‘lib, ushbu epizodlar Hasanxonning “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlaridagi o‘rnini aniqlashda yordam beradi.

Asli Vayanganda tug‘ilgan Hasanxonning ba‘zi o‘rinlarda xon oilasida, ba‘zan esa oddiy temirchi oilasida dunyoga kelgan degan ma‘lumot baxshilar tomonidan kuylangan bo‘lib, uning asl temirchi

¹ Sevinch G'afforova – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-mail: sevinchgafforova0301@gmail.com

ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0004-1774-6201>

Iqtibos uchun: G'afforova S.Z. 2025. "Uch baxshining Hasani (Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'lkan, Zohir shoir Qo'chqor o'g'li, Rahmatulla Yusuf o'g'li variantlari misolida)" O'zbekiston: til va madaniyat. Folklorshunoslik. Shevashunoslik 1: 103-110. doi.10.52773/tsuull.uzlc.2025.1/OHWW5969

oilasida dunyoga kelishi, usta-hunarmand kulti ibtidosiga borib taqalladi. Avazxon ham Hasanxon ham o'zidagi ma'lum hunar egasi bo'lishi orqali dostonidan o'rin oladi. Avazxon so'zga chechanligi, mohir jangchiligi, davraning kosaguliligi, tengsiz chiroyi bilan, Hasanxon esa 40 hunar egasi ekanligi, usta san'atkor, zargarligi bilan barchadan ajralib turgan. Va shu bois Ko'k malikasi Yunus pari Avazni, Yer parisi Misqol pari Hasanni o'ziga farzand qilishadi. Bu esa Avazning ibtidosi Ko'kka, Hasanniki esa Yerga bog'liq deb izohlanadi [Hasanxon(dostonlar): 27-jild 2023, 11].

"Hasanxon shunday yigit ediki, Shirin so'zli kulimsiragan tarzli, serfayzli, saraton yulduzli, keng yag'rinli, novchadan kelgan polvon jasadli, dushmanga siyosatli, do'stiga mehr shafqatli yigit edi. Isfihon shaharida Shodiyon degan temirchining o'g'li edi. Hasanxon o'g'lini usta Mudom Saribozor do'koniga otadan meros, deb shogird qilib yopishtirdi..." [Hasanxon(dostonlar): 27-jild 2023, 184] kuylagan Zohir shoir variantida Hasanxonning Shodiyon ismli temirchining farzandi ekanligi aytiladi. Asli Vayanganda tug'ilganligi xabarini esa Hasanxon bir kiyikni quvib ketayotgan paytda qirq yigitini kutib o'tirgan Go'ro'g'lining kiyikni otib o'ldirishi orqali yuzaga kelgan suhbatda aytadi:

*"...Kelib bizdan yana so'rab turmagin,
So'rab qolding ismi sharif otimdi.
Vayangandan deydi o'sgan yurtimdi,
Onam o'lgan, onasiz bir yetimdi.*

*Shodiyon temirchi deydi otamni,
Hasanxon deydilar mening otimni.
Isfihon der turar mamlakatimni,
Ko'nglim shu sababdan g'amgin ayladim."* [Hasanxon(dostonlar): 27-jild 2023, 198].

Xuddi shunday Rahmatilla Yusuf o'g'lining ham "Hasanxon"i Vayanganda temirchining oilasida tug'iladi. Hasanxon haqidagi ushbu xabarni Go'ro'g'liga to'rt temirchi yasagan o'q-yoyga ega bo'lish maqsadida borgan Isfihon shahrida uchragan Bobo qalandar beradi:

*"Bulutli kun ko'lga so'na qo'nadi,
Churraklar ham loychilar ham enadi.
Anjomlarni qilgan usta Xoldordir,
Shunga pir bo'l, har amringga ko'nadi.*

*...Chamanning tozadan-toza guli bor,
Gul bo'lganda gulning ming bir xili bor.
Zargarlikka shogird bergan Xoldorning,
Vayanganda Hasan degan uli bor,* [Hasanxon(dostonlar): 27-jild 2023, 260b.].

Ushbu dostonida Bobo qalandar uch kishiga Go'ro'g'liga, Xoldorxonga va Hasanxongagina ko'rinadi. Go'ro'g'liga Sulaymon podshodan qolgan so'ta va o'z nisbatini, Xoldorxonga esa komil ustalikni, Hasanxonga esa uzoq yo'lni bir daqiqada oson qilish yo'lini o'rgatganligi ham ushbu obrazlarning oddiy temirchi bo'lishiga qaramasdan asarda muhim o'ringa egaligidan darak beradi.

Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'lkan esa Hasanxonni Vayangan podshohi Temirxonning o'g'li deya tasvirlaydi. Yuqoridagi fikrlarga tayanadigan bo'lsak Hasanxonning temirchi usta oilasida dunyoga kelishi kerak degan xulosaga kelamiz, ammo shuni ham yoddan chiqarmaslik kerakki, dostonlarda asosiy obraz darajasiga chiqariladigan qahramon xalq idealidagi orzularini amalga oshiradigan biri sifatida yuzaga chiqishi kerak. Buni Alisher Navoiy ham dostonlarida jamiyatni odil shohlar o'zgartirishi mumkin degan fikrni olg'a surganida ko'rishimiz mumkin. Xalq dostonlarida tabiiy hodisa hisoblangan bu holat haqida H.T.Zarifovning: "doston qahramonining odatda shoh o'g'li, podsho o'g'li, bo'lishi butunlay tabiiydir. Xalqning ongida qahramon amalga oshirishi kerak bo'lgan ishlarning bajarilishi shohlik imkoniyati tushunchasi bilan bog'lanadi"[Зарифов Х.Т. 1958, 110] degan fikri so'zning isboti desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ushbu variantda Go'ro'g'liga Hasanxon haqidagi xabar qirq yigit davrasida bir kosagul kerakligi haqidagi suhbatda Yunus pari tomonidan beriladi:

*"Vayanganda bitta suluv bachcha bor,
Suluvligi parilardan ziyoddi[r].
Xon Hasan der aytsam bachchaning oti,
Asli o'zi aslzoda podshodi[r],
Uning o'zi Temirxonning farzandi,
Suluvligi Yunusjondan ziyoddi[r]."* [Hasanxon(dostonlar): 27-jild 2023, 16 b.]

Po'lkan shoir o'z variantida Hasanxonning nisbatan kichik yoshdagi bola ko'rinishini tasvirlaydi, uning ta'rifi Yunus pari tilidan aytadi:

*"Obod bo'lgay, beklar, Chambilning yurti,
Urushda ketadi botirning dardi.
Ko'rgan suluvimni sizga aytayin,
Aytgan suluv Temirxonning farzandi.*

*Mosho bossa qistab chiqar farang o'q,
O'zingizdan har vaqt mening ko'nglim to'q.
Ko'rganimni aytaversam men sizga,
Yer yuzida undan suluv bacha yo'q.*

*Yunus pari ko'rgan, ko'rganin aytdi,
Uni ko'rgan odam esidan ketdi.
Suluvligi parilardan ziyoddi,
Xon Hasan der aytsam bachchaning oti.
Asli o'zi aslzoda Temirxonning farzandi,
Suluvligi Yunusjondan ziyoddi(r)"* [Hasanxon(dostonlar): 27-jild 2023, 16 b.].

Shuningdek uning **yosh bacha** ekanligi Soqibulbul va Hasan Chopsonning Vayanganda Temirxonning o'lgan otasining ruhi va arvohi ko'rinishida borganda tilga olinadi. Hasanxon bobosidan duo olishga chaqiriladi:

"Ana endi Hasanxonni gavhar taxtga mindirib, necha yaxshi

kiyimlardan kiygizib, necha o'ziga monand bachalarni oldiga qo'yib, necha karnay-surnay bilan otamning arvohi keldi, deb Temirxon podsho necha saltanat bilan chiqyapti bechora.

..Ana shunda Hasan chopson soqolini har tus qilib o'rib qo'yuvdi. Hasanxonning quralayday ko'zlarini, oyga o'xshagan yuzlarini, shakarday shirin so'zlarini, ana kelayotgan Temirxon podshoning elati o'zlarini ko'rib, bu Hasanxonni Hasan chopson juda yaxshi ko'rib, avji kelib, soqollarini har tarafga seldiratib, ana endi bir sho'xlik qilib, Soqibulbul soqolni tuyib, uzanggi qilib, Vayangan shahrining odamlariga, Hasanxonga va fuqarolarga qarab aytayotgan so'zi:

..- O'yna, -o'yna, - dedi Hasan Chopson, bir avji kelib, Hasanxonni ko'rib, bir qo'shiq aytyapti. " [Hasanxon(dostonlar): 27-jild 2023, 60-61].

Po'ltan shoir variantida Hasanxonning olib kelinishi jarayonida vatan tinchligi osoyishtaligi, xalqparvarlik tuyg'ulari ko'proq ulug'lanadi. Go'ro'g'li va uning lashkari ko'rsatgan jasorat, matonat kuylanadi.

Zohir shoir Qo'chqor o'g'li variantida esa uslubiy bo'yoqdorlik nisbatan ko'proq qo'llaniladi:

"Hasanxon shunday yigit ediki, Shirin so'zli kulimsiragan tarzli, serfayzli, saraton yulduzli, keng yag'rinli, novchadan kelgan polvon jasadli, dushmanga siyosatli, do'stiga mehr shafqatli yigit edi." [Hasanxon(dostonlar): 27-jild 2023, 184 b].

Hasanxonni Chambilga olib borganda uni tomosha qilishga chiqqan yigit-qizlar orasidan o'tib ketayotganida ham uning ta'rifi tilga olinadi:

*"Hasan shunday yigit edi,
Husni to'lgan oydayin.
Ming qo'y sotgan boydayin,
Qoshu ko'zi yoydayin.
Qomatlari kelishgan,
Kiygan to'ni yarashgan,
Qaragan ko'zi qamashgan,
Qizlar ko'rib talashgan,
Yon-yonidan qarashgan,
Yigitlari so'rashgan.
Tomoshaga kelganlar,
Ancha qizu o'g'lonlar.*

*Hasanxonday lochinini,
Qizlar tuyib sochini.
"Agar shu meni olsa,
Beray quchoq mo'chchini".
Hasan kirdi shaharga,
Gul ochildi bahorga,
Keldi bizning diyorga." [Hasanxon(dostonlar): 27-jild 2023, 239 b.]*

Bobo qalandar tilidan ta'rifi berilgan Rahmatulla Yusuf o'g'li variantida Hasanxon o'n ikki yoshda, suluvlikda tanho, maqtasa maqtagudek qilib tasvirlanadi:

*"Boshqa o'g'lonlardan kelbati boshqa,
Quralay ko'zlari yarashgan qoshga.
Shunday suluv, qirq kokilli Hasanxon,
Yangi kirgan o'zi o'n ikki yoshga.*

*Jamoli dastagul qovog'i g'uncha,
Jahonda ko'rmadim suluv ul buncha.
Yuzda xoli mushku anbar tuguncha,
Xo'blikda maqtasam yana bor shuncha."* [Hasanxon(dostonlar): 27-jild 2023, 260b.]

Hasanxon yoshiga nisbatan ancha qobiliyatli, mard yigit bo'lib, o'zi ham doim mardlikni talab qilib yuradi. Bobo qalandardan olgan so'tasi ila Xoldorxon ko'rinishiga kirib, Hasanxonni Chambilga olib ketayotgan Go'ro'g'li undan Badbaxt tog'i ustida u bilan ketishga roziligini so'rab o'z tusiga qaytganda bunday nomardlikdan achchiqlangan Hasanxon mardning maydonda sinalishini talab qiladi. "Bu qurol aslaha bilan menam istagancha jasorat qila olaman, sen men bilan hech nimasiz janggi tush" deb shart qo'yadi. Mana shu yerda ham yoshi o'n ikkida bo'lishiga qaramay shijoati, mardligi sherdek Hasanxonning ta'rifi o'z tilidan kuylanadi:

*"Ayirding, bachchag'ar, o'sgan elimdan,
Otangman, deb tutding mening qo'limdan,
Men ham xabardorman unday bilimdan,
Hali ham keladi har ish qo'limdan.
Qancha beldan bir xatlashda o'taman,
Asr bo'lmay Vayanganga yetaman,
Mard bo'lsang maydonga tushgin Go'ro'g'li,
Nomard bo'lsang bundan qaytib ketaman,
Hali ham keladi har ish qo'limdan.
Anjomingni tashlab tushgin otingdan,
Mening uchun kelgan bo'lsang yurtingdan,
Bir tortib ag'darib tashlay murtingdan,
Hali ham keladi har ish qo'limdan.
Hasanxon der, mard seningday bo'lami,
O'zini o'zgartib otam qilami,
Hiyla-tadbir qilib menga kelami,
Shuytib ham mard nomin odam olami?"* [Hasanxon(dostonlar): 27-jild 2023, 265b.]

Va ushbu talabidan keyin Go'ro'g'li Hasanxon bilan kurash tushishga rozi bo'ladi va uni yenggadi. Go'ro'g'lining kuchini, g'ayratini ko'rib, uning mardligiga tan beradi va Go'ro'g'liga o'g'il bo'lishni qabul qiladi:

*Mard ekansan, mardligingni bildirding,
Otdan tushding, bodomchaga ildirding,
Kurash tushding meni qoyil qoldirding,
Shart ayladim, otam bo'lding, Go'ro'g'li.*

*G'o'ch ekansan g'o'chligingni ko'rsatding,
Men talab etgan so'ng boringni otding,
Beanjom beulov qora kuch bilan,
Mardlarcha kelibon qo'limdan tutding.
Shart ayladim, otam bo'lding, Go'ro'g'li.*

*Vayanganni tark ayladim bugundan,
Chiqdim kosib degan bandu tugundan,
Avvaldan ham emas edim qizilbosh,
Bir fuqaro edim pastki bo'g'indan,
Shart ayladim, otam bo'lding, Go'ro'g'li* [Hasanxon(dostonlar): 27-jild 2023, 266 b.]

Hasanxonning aql zakovati, mahorati aks etgan sahnalar Zohir shoir variantida ham mavjud bo'lib, ushbu jarayon Go'ro'g'li G'iro'tga nahal qoqdirish uchun uning ustaxonasiga borganda yuzaga chiqadi. Hasanxon qoqqan nahallarni Go'ro'g'li olib bir musht toshdek qilib ezib tashlayveradi, boshqasini olib kel deb ikki oxur nahalni sifat-sizga chiqaradi va ahiyri objo'sh nahalni qoqib, uning ishiga javob qaytaradi:

"Hasanxon objo'sh nahaldan olib, chiqib qoqdi. Go'ro'g'li bu nahalga ko'ngli to'lib, ko'lardan bir hamyon tangani olib ustazodaning oldiga tayladi. Hasanxon tanganing to'rttasini olib, muhri yo'q deb boshmaldog'i bilan bosib o'yib tayladi, yana to'rttasini olib qayirib tayladi. Shunday qilib, bir hamyon tangani o'tmasga chiqarib, "haqini to'lab keting", - deb turdi. Go'ro'g'li Hasanxonning bu qilgan ishiga qoyil qolib, "aql-hushi to'la quvvatli, muruvvatli yigit ekan", - deb ikki dona oltin berib ustani rozi qilib bir so'z aytdi..."[Hasanxon(dostonlar): 27-jild 2023, 217 b.]

Bo'lgan ko'ngilsizliklar: kiyikni tutaman deganda Go'ro'g'lining uni otib o'ldirishi, ikki oxir nahalni sifatsizga chiqarishi Hasanxonga juda alam qilib turganda uning otasi ishning zararga yurganini ko'rib Hasanxonni uydan quvadi. Hasanxon esa bo'lgan ishlarga aybdorni Go'ro'g'li bilib, uni tosh bilan bostirib o'ldirmoqchi bo'ladi. Ammo Go'ro'g'li unga xudoni o'rtaga qo'yib do'st bo'lishni taklif qilishi orqali ular ota-bolalikka kirishadi:

*"...Ne maqsading bor o'zim yetkarayin,
Yurgin, Chambil elga olib borayin.
Do'st xudoning oti bo'lar, qaddingdan,
Qayt fe'lingdan, sen bilan do'st kirayin.
Hasan aytdi: – Oting ekan Go'ro'g'li,
Zoting nima deydi sening, sher o'g'li?
Bizda ham bor zarvaraqli ayvonlar,
Ko'shki mazgil, necha botir polvonlar.
Mamlakating bizga buncha maqtama,
Mingan oting tulpormi, yo ahtami?
Olib borsang bizni Chambil beliga,
Do'st kirsak-kiraylik, kelgin beriga, –*

Deb Hasanxon toshni joyiga tashlab, Go'ro'g'li otini Hasanxonning oldiga boshlab chiqmoqchi bo'lib turganini bilib Hasanxon pastga tushdi, Go'ro'g'li bilan ko'rishdi, chinachoq olishib qiyomatli ota-bola kirishdi." [Hasanxon(dostonlar): 27-jild 2023, 225 b.]

Har uchala baxshi variantida ham mardligi tarannum etilgan Hasanxon Go'ro'g'liga ilk asrab olingan dilbandi, Misqol parining yoqasidan solib, etagidan olgan farzandi, 40 hunar egasi, aql zakovat sohibi sifatida tasvirlanadi. Po'ltan shoir variantida nisbatan bolalik kezlari tasvirlangan bo'lib, unda Go'ro'g'lining vatanparvarligi, xalqsevarlik ruhi ustunlik qilgan bo'lsa, Zohir shoir va Rahmatulla baxshi variantlarida Hasanxon obrazi to'liqroq ochib berilgan. Tadrijiy davomiylik yuzasidan Po'ltan shoirning Hasanidan keyin Rahmatulla Yusuf o'g'lining o'n ikki yoshli Hasani joy olsa, qatorni Zohir shoirning navqiron yigit, o'g'lon yoshida bo'lgan Hasanxoni tugatib beradi. Tug'ilgan oilasi, ota-onasi, Chambilga olib kelinish sababi uch baxshida farqlilik kasb etsada, mardligi, aql zakovati tasviri, shuningdek Go'ro'g'liga farzand tutinishi holatlari mushtaraklik kasb etadi.

Adabiyotlar

“Go'ro'g'li” dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari (2011)/Sh.G.Turdimov; mas'ul muharrir T.Mirzayev. – Toshkent: Fan. 2011.

“Hasanxon”(dostonlar):(2023).27-jild/Nashrgatayyorlovchilar: M.Jo'rayev, Sh.Turdimov, B.Mirzayeva, D.Igamuratova. –Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti.

Зарифов Х.Т. (1958). К изучению узбекского народного эпоса// Вопросы изучения эпоса. – М., 1958.

https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=pOaNce4AAAAJ&citation_for_view=pOaNce4AAAAJ:8k81kl-MbHgC

Hasan of three Bakhsh

(Examples of variants of Muhammadqul Jonmurad son Polkan, Zohir poet Kochkar son, Rahmatulla Yusuf son)

Gafforova Sevinch ¹

Abstract

Most of the epics that make up the “Gorogli” series are epic works dedicated to Avazkhan and Hasankhan, Gorogli's adopted children, and these characters are sung directly and indirectly as adventure heroes. And each of them forms its own biographical and genealogical series. There is a repertoire of bakhshi songs about Hasan Khan, who was brought from Wayangan to Chambil as an abandoned child. In this research, the “Hasan Khan” epics

¹ Sevinch Gafforova – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-mail: sevinchgafforova0301@gmail.com

ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0004-1774-6201>

Iqtibos uchun: G'afforova S.Z. 2025. "Hasan of three Bakhsh (Examples of variants of Muhammadqul Jonmurad son Polkan, Zohir poet Kochkar son, Rahmatulla Yusuf son)". Uzbekistan: language and culture. Folklore. Dialectology 1: 97-110.

doi.10.52773/tsuull.uzlc.2025.1/OHWW5969

performed by Muhammadqul Jonmurad son Polkan, Zahir poet Kochkor son, Rahmatulla Yusuf son, and their comparative analysis will be conducted. Until today, the analysis of Hasan Khan's image in the epics of the Gorogli series, which was thoroughly researched by O. Sobirov, M. Mirzayeva, S. Sariyev, and Sh. Turdimov, has not been fully addressed. Through this research work, an opinion on the existing issue is expressed, and the epic "Hasan Khan" of three Bakhshis is comparatively analyzed..

Keywords:folklore,epic,generation,classification,comparative analysis, blacksmith family, bravery, bravery, father-son relationship.

References

"Go'ro'g'li" dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari (2011)/Sh.G'Turdimov; mas'ul muharrir T.Mirzayev. – Toshkent: Fan. 2011.

"Hasanxon"(dostonlar):(2023).27-jild/Nashrgatayyorlovchilar: M.Jo'rayev, Sh.Turdimov, B.Mirzayeva, D.Igamuratova. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti.

Зарифов Х.Т. (1958). К изучению узбекского народного эпоса// Вопросы изучения эпоса. – М., 1958.

https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=pOaNce4AAAAJ&citation_for_view=pOaNce4AAAAJ:8k81kl-MbHgC

Jurnal 2017-yil 26-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro'yxatdan o'tgan. Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2021. No 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi 103-uy. Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

E-mail: uzlangcult@gmail.com